

**2022-YILGI PISA XALQARO DASTURI NATIJALARI: PISA XALQARO
BAHOLASH DASTURLARIDA O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGINI
BAHOLASH USULLARI**

Xolboyeva Gulnora

Ilmiy rahbar

Zaripova Sulhida

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Boshlang'ich ta'lim fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada PISA xalqaro baholash dasturi haqida shuningdek, o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash qay tartibda baholash kerakligi aytilgan.

Kalit so'zlar: PISA, o'qish savodxonligi, baholash mezoni, matn formati, matn shakli, matn manbasi, matn shakli.

Introduction

Mamlakatimiz ta'lim tizimidagi islohotlarning yangi bosqichi bo'lmish PISA xalqaro baholash dasturida qatnashishiga tayyorgarlik ko'rish davrida muallimlardan yangicha yondoshishni taqozo etadi. Bunday tizim yurtimizda yangiligini inobatga oladigan bo'lsak, dastavval ustozlarga bu tizim haqida ma'lumot berish, tizimning talab hamda imkoniyatlarini tushuntirish zarur bo'ladi. Biroq, ushbu PISA xalqaro baholash dasturida qatnashishdan maqsad testlarni o'tkazish yoki o'quvchi-yoshlarni testga tayyorlash emas, balki ularda XXI ko'nikmalarini shakllantirish hamda raqobatdosh kadrlarni tayyorlash uchun mustahkam zamin yaratish hisoblanadi.

O'qish savodxonligi kitobxonni matn shaklidagi axborotlarni tushunish va ma'lumotlarga nisbatan reaksiya paydo qilish ko'nikmasi, jamiyatda faol ishtirokchi sifatida o'qigan ma'lumotlaridan maqsadli foydalana olish bilimi va imkoniyatlarini oshirish layoqati demakdir. Bu jarayonda o'qish savodxonligi tushunchasi keng ma'no kasb etgan. Bu yerda o'qish savodxonligi o'quvchining berilgan badiiy asardan parcha, biografiya, hujjat, xat, gazeta va jurnallardan olingan maqolalar, turli qo'llanmalar, geografik kartalar kabi rang-barang tematikadagi, tarkibida matnni ochib berishga mo'ljallangan diagrammalar, rasmlar, kartalar, grafik va jadvallar berilgan matnni tushunishi, mazmuni haqida fikr yurita olish, matn mazmuniga baho berish va o'qiganlari haqida o'z fikrini bayon qilishi kabi kompetensiyalarini aniqlash kabi tushunchalarni nazarda tutadi.

“O'qish savodxonligi insonning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishi, jamiyatda ishtirok etishlari va o'z bilim va imkoniyatlarini rivojlantirishlari uchun matn ko'rinishidagi ma'lumotlardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish, ular bilan ishlash va tushunish demakdir”.

O'qish va o'qish savodxonligiga berilgan ta'riflar jamiyat, iqtisodiyot, madaniyat va texnologiyadagi o'zgarishlarni aks ettirganligi tufayli yillar davomida turli xil bo'lib o'zgaradi. O'qish ta'lim olish jarayonining ilk yillarida yoshlikda egallanadigan bilim va qobiliyatgina bo'lib hisoblanmaydi. Sababi u insonning o'z tengdoshlari va jamiyatning boshqa a'zolari bilan muloqotga kirishishi orqali turli vaziyatlarda butun hayoti davomida shakllanib, kengayib boradigan bilim, ko'nikmalar va strategiya hisoblanadi. shunday ekan, o'qish savodxonligiga fuqarolar bir-birlari bilan matnli artefaktlar yordamida o'zaro muloqotga kirishish usullari va uning insonlar butun hayotlari davomida o'qib-o'rganishlarida tutgan ahamiyati sifatida qaralishi shart.

PISA 2018 xalqaro baholash dasturining murakkabligi va qiyinlik darajasini saqlab qolish maqsadida o'qish savodxonligining tarkibiy shkalasi va har bir qo'shimcha shkalalari oltita darajaga ajratiladi. Mazkur darajalar, PISA 2000 tadqiqotlarida ko'rsatib o'tilganidek, PISA 2009 va 2015 tadqiqotlarida sohaviy yo'nalishlarini baholashda qo'llaniladigan tarkibiy shkala uchun saqlab qolindi. Shunday bo'lsa-da, yangidan tuzib chiqilgan topshiriqlar o'quvchilarning o'zlashtirish darajalarini yaxshilashga va PISA 2000 tadqiqotlari yuqori va past o'zlashtirish darajalarini oshirishga yordam berdi. Shunday qilib, ushbu shkalalarga 6-daraja qo'shildi va 1-daraja 1a va 1b darajalarga ajratildi.

PISA 2015 tadqiqotlarida berilgan tasnif asosida o'quvchilarning o'qish savodxonliklarini ko'rsatuvchi darajalar

Daraja	O'quvchilar nima qila olishlari
6-daraja 698 1.1%	6-darajaga mansub o'quvchilar odatda batafsil va qisqacha xulosa chiqaradi, qiyoslay va zidlay oladi. Bunday o'quvchilar bir yoki bir necha matnlarni to'liq va batafsil tushunishni namoyish qiladi va matnlarda berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi. Topshiriqlarda o'quvchidan mavhum tushunchalarni umumlashtirish va bir-biriga zid ma'noli ma'lumotlardan iborat notanish mavzudagi murakkab matnni tanqidiy baholaydi. Mazkur darajada topshiriqlarni baholash va ajratib olish uchun kerakli shart matndan anglashilmagan ma'lumotlarga e'tibor qaratish va tahlil qilishdan iborat.
5-daraja 626 8.4%	5-darajaga mansub o'quvchi matndagi qaysi ma'lumot tegishli ekanini inobatga olib, murakkab tarzda berilgan ma'lumotni topib, tartibga sola oladi. Mazkur topshiriqlar o'quvchidan muayyan bilim va tajribalarga tayanib, tanqidiy baholash yoki mulohaza yuritishni talab etadi. Talqin etish va ta'riflashga qaratilgan topshiriqlar shakli yoki mazmuni noma'lum bo'lgan matnni t'liq va batafsil tushunishni talab etadi. O'qish savodxonligining barcha jihatlaridan kelib chiqib, ushbu darajada berilgan topshiriqlar odatda mavjud tushunchalarga qarama-qarshi bo'lgan tushunchalar bilan ishlashni taqozo etadi.
4-daraja 553 29.5%	4-darajaga mansub o'quvchilar berilgan ma'lumotni topib, tartibga soladi. Shuningdek, ular butun bir matn bilan ishlash orqali uning alohida qismining tilga oid nozik jihatlarini talqin etadi. Boshqa ta'riflashga oid topshiriqlarda o'quvchi noma'lum kontekstda berilgan kategoriyalarning tushunish va qo'llash ko'nikmasini namoyon qiladi. Bundan tashqari, bu darajadagi o'quvchi matnni tanqidiy baholash yoki u haqida mulohaza yuritish uchun rasmiy va ba'zan umumiy bilimlaridan foydalanadi. O'quvchi shakli yoki mazmuni noma'lum

	bo'lgan murakkab yoki katta hajmdagi matnlarning to'g'ri tushunish ko'nikmasini ko'rsatishi lozim.
3-daraja 480 58.6%	3-darajaga mansub o'quvchilar ma'lum tamoyillar asosida tuzilgan bir necha ma'lumotlar orasidagi bog'lanishni topadi va ayrim hollarda, tushunishga harakat qiladi. Shuningdek, ular matnning asosiy g'oyasini aniqlash, so'z yoki iboraning ma'nosini talqin qilish yoki bog'lanishni tushunish uchun matnning ayrim qismlarini umumlashtiradi. O'quvchilardan matndagi ma'lumotlarni qiyoslash, zidlash yoki tasniflashda qatnashadigan qator jihatlarga e'tibor qaratadi. Ko'p hollarda, talab etilgan ma'lumot ko'zga tez tashlanmaydi yoki matnda bir necha zid ma'noli ma'lumotlar mavjud bo'ladi yoki noto'g'ri talqin etilgan yoki mavjud g'oyalarga zid bo'lgan g'oyalar kabi boshqa qarama-qarshiliklar (ixtilofli ma'lumotlar) mavjud bo'ladi.
2-daraja 407 82.0%	2-darajaga mansub o'quvchilar ayrim talablarga javob berishi mumkin bo'lgan va ma'nosi ham anglashilishi oson bo'lgan ma'lumotlarni topa oladi. Ular matnning asosiy g'oyasini, ular orasidagi bog'lanishlarni tushunadi yoki ma'lumotlarni ajratib ko'rsatilmagan matnning ayrim qismlari ma'nosini talqin qiladi va o'quvchi pasy saviyada xulosa chiqaradi. Mazkur darajada berilgan topshiriqlar matnning yuzaki jihatlari asosida qiyoslaydi yoki zidlaydi. Ushbu darajada berilgan odatdagi mulohaza yuritishga oid topshiriqlar o'quvchidan shaxsiy tajriba va munosabatlariga tayanib, matnga oid yoki unga oid bo'lmagan bilimlar orasidagi o'xshashliklarni yoki tafovutlarni aniqlaydi.
1a-daraja 335 94.3%	1a-darajaga mansub o'quvchilar yaqqol ko'rsatib berilgan alohida ma'lumotlarni topa oladi, ma'lum mavzuga oid matnda keltirilgan muallifning maqsadi yoki matnning asosiy g'oyasini tushunadi yoki matndagi ma'lumot va kundalik, umumiy bilimlarni bir-biriga bog'laydi. Odatda, matnda talab etilgan ma'lumot ajralib turadi va unda, ayrim hollarda, bir-biriga zid ma'lumotlar mavjud bo'ladi. O'quvchi topshiriqdagi va matndagi tegishli jihatlarni bevosita e'tiborga oladi.
1b-daraja 262 98,7%	1b-darajaga mansub o'quvchi hikoya yoki sodda ro'yxatda bo'lgani kabi ma'lum kontekstdagi sintaktik jihatdan sodda va hajman qisqa tuzilgan matnda yaqqol ko'rinib turgan alohida ma'lumotlarni topa oladi. 1b-darajaga xos matnlarda odatda o'quvchilarga yordam beradigan ko'rsatmalar (masalan, ma'lumotlarning takroran qo'llanilishi, tasvirlar yoki ma'lum belgilar) beriladi. Matnlarda bahsli xarakterdagi ma'lumotlar kam uchraydi. 1b-darajaga mansub o'quvchilar bir-biriga mazmunan yaqin ma'lumotlarni bir-biriga sodda tarzda bog'lash orqali matnlarni talqin qila oladi.

PISA xalqaro baholash dasturi hozirgi dunyo hamjamiyatining eng ilg'or tajribalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi bu jarayonda 2021-yil qatnashishi e'lon qilingan edi. Aynan shu 2021-2022-yilgi ta'lim jarayonida PISA xalqaro baholash dasturlarida tanlangan maktablar ishtirok etdilar. O'zbekistonning PISA 2022 yildagi tadqiqotida ishtirok etishga oid natijasi 2023-yil 5-dekabr kuni xalqaro darajada e'lon qilindi. Mazkur tadqiqotda 82 ta davlat qatnashib, O'zbekiston 80-o'rinni egalladi, ya'ni tadqiqotda O'zbekiston oxirgi 10 talikdan joy olgan. O'qish savodxonligi bo'yicha o'quvchilarning atigi 12,2 foizi 2-darajaga, 1,8% - 3-darajaga va 0,1% - 4-darajaga erishdi. Umuman olganda, o'quvchilarning 60% dan ortig'i savodxonlikning

uchta yo'nalishi (o'qish, matematika, tabiiy-ilmiy) bo'yicha minimal darajaga (2-daraja) ham erisha olmadi. O'zbekiston har uch yo'nalish bo'yicha ham oxirgi o'ntalikdan joy olgan: matematik savodxonlik – 364 ball (tadqiqotda ishtirok etgan davlatlar ko'rsatgan o'rtacha natija 472 ball bo'ldi), o'qish savodxonligi – 336 ball (o'rtacha ball – 476 ball), tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha – 355 ball (o'rtacha ball – 485 ball).

Tadqiqotdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, O'zbekistonda 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan har bir o'quvchiga o'n yillik ta'lim uchun taxminan 15300 dollar sarflanadi. Singapur (487 ball), Yaponiya (450 ball) va Estoniya (427 ball) kabi mamalakatlarining eng kam ta'minlangan o'quvchilari (xalqaro o'lchovlar bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy maqomda eng yomon 20 foizlik) matematikadan O'zbekistonning eng farovon hayot kechirayotgan o'quvchilaridan (xalqaro standartlar bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy maqomda eng yaxshi 20 foizlik) yaxshiroq.

Bundan ko'rinib turibdiki, matematika, o'qish va tabiiy fanlar bo'yicha o'tkazilgan 2022-yilgi PISA xalqaro dasturi natijalari sohada qilinadigan ishlar hali ko'pligini aniq ko'rsatdi. Shuning natijasida, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq, O'zbekiston 2030-yilgacha PISA natijalari bo'yicha **top-30** davlat qatoriga kirishni rejalashtirmoqda.

Shu sababli, maktablarda matematika, fizika, kimyo, biologiya va xorijiy tillar bo'yicha o'quv reja va dasturlarini xalqaro standartlar asosida yangilash, shuningdek, o'quvchilar bilimi, tahliliy, tanqidiy va kreativ fikrlashi, muammolarga yechim topib, amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan o'quv metodikalarini ishlab chiqish topshirildi. Bunda, tan olingan xorijiy dasturlar (A – level, IB kabi), o'quvchi va muallimlar bilimini baholashda xalqaro tajribalar (PISA, TIMSS, PIRLS) bosqichma-bosqich joriy etiladi. 2024-yilda Prezident maktablari ta'lim dasturi yana mingta maktabda boshlanadi. Hokim ularni moddiy-texnik bazasini yaxshilashga mas'ul bo'ladi.

PISA tadqiqotida to'rt xil sinov usullaridan (testlar bilan bir vaqtda o'quvchilardan anketalar ham olish nazarda tutilgan) foydalaniladi:

- a) Bir javobli testlar;
- b) Bir necha javobli testlar;
- c) Qisqa yoki batafsil javob yoziladigan javoblar;
- d) Biror muammoning yechimi bo'yicha o'quvchi fikri (odatda bunday savollarda tekshiruvchida umumiy javoblar bo'ladi, o'quvchi javobi test tuzuvchi javobiga aynan mos kelishi talab qilinmaydi, o'quvchi ijodkorligi qo'llab-quvvatlanadi).

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan ishtirokchilarni PISA tadqiqotiga tayyorlashga doir mashg'ulotlar olib borilganida, PISA ta'lim sohasidagi eng yirik, keng ko'lamli xalqaro monitoring tadqiqotlaridan biri sanalishi; tadqiqot umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan 15 yoshli o'quvchilar ishtirokida o'tkazilishi; tadqiqotda o'quvchilarning "hayotga tayyorgarlik" darajasi, ya'ni ularning maktabda egallagan bilim va ko'nikmalarini hayotda qo'llay olish layoqati ham baholanishi; tadqiqotda o'quvchilarning matematika, o'qish (matnni tushunish), tabiiy yo'nalishdagi fanlar va global muammolarni hal etish sohasidagi funksional savodxonligi baholanishi; tadqiqotda ishtirokchi mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xosligi bo'yicha ma'lumot olish imkonini beradigan kontekst axborot to'play olish imkoniyatiga egaligi kabi o'ziga xos xususiyatlar bilan tanishtirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Radjiyev A.B. va boshqalar “ O’quvchilar savodxonligini baholash bo’yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi” qo’llanma Toshkent -2019
2. Sharifxodjayev U. Norboyeva D. umumiy tahriri ostida” PISA tadqiqotida kreativ fikrlashni bahoalsh doirasi” Toshkent -2020
3. <http://lex.uz> – O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
4. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali Ziyonet
5. <http://bilim.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi.